



BO'LAJAK O'ZBEK TILI O'QITUVCHILARINING KASBIY MULOQOT MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Sohiba Usmonova

*Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
O'zbek va sharq tillari kafedrasi stajyor o'qituvchisi*

Annotatsiya. Zamonaviy ta'lismizda bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarining kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tadqiqot pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada o'qituvchining nutq madaniyati, pedagogik muloqot strategiyalari va kasbiy mahoratning ta'lismiz jarayoniga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot davomida mavjud muammolar tahlil qilinib, ularni yechish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy muloqot, kommunikativ kompetensiya, pedagogik mahorat, nutq madaniyati, ta'lim metodlari, muloqot strategiyalari.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMMUNICATION SKILLS OF FUTURE UZBEKISTAN LANGUAGE TEACHERS

Annotation: This research examines approaches to developing professional communication skills among future Uzbek language teachers in contemporary educational settings. The study analyzes methods for enhancing communicative competencies during teacher preparation, focusing on speech culture, pedagogical communication styles, and their impact on educational quality. Practical recommendations for addressing existing challenges are proposed.

Key words: professional communication, communicative competence, pedagogical expertise, speech culture, educational methods, communication strategies.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ УЗБЕКИСТАНСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация: Данное исследование рассматривает подходы к развитию профессиональных коммуникативных навыков будущих учителей узбекского языка в современных образовательных условиях. Анализируются методы повышения коммуникативных компетенций в процессе подготовки педагогов, изучается влияние речевой культуры и педагогических стилей общения на качество образования. Предложены практические рекомендации по решению существующих проблем.



Ключевые слова: профессиональное общение, коммуникативные компетенции, педагогическое мастерство, культура речи, образовательные методы, стратегии общения.

KIRISH

Til har qanday millatning ma'naviy boyligini aks ettiruvchi ko'zgu vazifasini bajaradi. O'zbek tili milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni asrash va rivojlantirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Ona tilini o'qitish jarayoni nafaqat talabalarda chuqur til bilimlarini shakllantirish, balki ularning kommunikativ ko'nigmalarini rivojlantirish, nutq madaniyatini oshirish hamda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash vazifalarini ham o'z ichiga oladi.

O'zbek tili o'qituvchilarini tayyorlashda ularning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish alohida e'tiborni talab qiladi. Chunki o'zbek tili o'qituvchisi nafaqat til bilimlarini uzatuvchi shaxs, balki o'quvchilar uchun til madaniyati va nutq me'yorlarining timsoli vazifasini ham bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi rahbariyatining o'zbek tilini rivojlantirish sohasidagi muhim qarorlari, jumladan, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni o'zbek tilining nufuzini mustahkamlash va uni o'qitish sifatini oshirish vazifalarini belgilaydi. Bu maqsadlarga erishish uchun yuqori malakali o'zbek tili o'qituvchilarini tayyorlash zaruriyati mavjud.

Bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarining kasbiy muloqot ko'nigmalarini shakllantirish muammosi pedagogika, psixologiya va tilshunoslik fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan bo'lib, kompleks yondashishni talab qiladi. Shu sababli, mazkur tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning muloqot malakalarini rivojlantirishning nazariyi va amaliy jihatlarini o'rganish maqsad qilib qo'yilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

Kasbiy muloqot masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Pedagogik muloqot nazariyasi bo'yicha tadqiqotlarda muloqotning uch asosiy tomoni ajratib ko'rsatiladi: kommunikativ (ma'lumot almashinuvi), interaktiv (o'zaro ta'sirlashish) va perceptiv (bir-birini anglash).[1]

Pedagogik muloqot "o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi professional faoliyat doirasida amalga oshiriladigan o'zaro ta'sirlashish" sifatida ta'riflanadi.[2] Tadqiqotchilar pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlab, uning oddiy ijtimoiy muloqotdan farqli jihatlarini ko'rsatadi.

Pedagogik muloqot texnologiyasi bo'yicha tadqiqotlarda quyidagi bosqichlar belgilanadi: muloqotga tayyorgarlik, boshlang'ich davr, muloqot jarayonini boshqarish, tahlil va baholash.[3]

Mahalliy tadqiqotchilar orasida N.N. Azizxo'jayeva pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat masalalarini chuqur o'rganib, zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llarini ko'rsatgan. R.J. Ishmuhamedov zamonaviy ta'lim texnologiyalari sohasidagi tadqiqotlarida faol ta'lim metodlarining o'qituvchilarning komunikativ malakalarini rivojlantirishdagi o'rnini tahlil qilgan.

Yuqoridaagi ilmiy manbalarni o'rganish asosida olgan bilimlarimizga tayanib, bu kichik tadqiqotni olib borish davomida nazariy, qiyosiy, tizimli va umumlashtiruvchi tahlil metodlaridan foydalangan holda oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalar va o'qitish materiallari o'rganildi va tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kasbiy muloqot - bu professional faoliyat doirasida amalga oshiriladigan o'zaro ta'sirlashish jarayoni bo'lib, ma'lum maqsadlar va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan. Pedagogik muloqot bu tushunchaning o'ziga xos turi hisoblanadi. Pedagogik adabiyotlarda pedagogik muloqot "o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ta'lim jarayonida ijobiy muhit yaratish va o'zaro munosabatlarni rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladigan professional aloqa" sifatida ta'riflanadi.[4]

Tadqiqotchilarning fikricha, pedagogik muloqot nafaqat ma'lumot almashish, balki tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va bir-birini tushunish jarayoni hisoblanadi. O'zbek olimlarining fikriga ko'ra, pedagogik muloqot "o'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorlikdagi faoliyati, ular o'rtasidagi axborot almashinushi va o'zaro ta'sirlanish usuli"dir.[5]

Bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarining kasbiy muloqot malakalarini rivojlantirish usullari

1. Faol ta'lif usullari

Zamonaviy ta'lifda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi va hamkorlikka asoslangan ta'lif metodlari muhim o'rinni tutadi. Bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarining muloqot malakalarini rivojlantirishda vaziyatli o'yinlar va pedagogik holatlarni modellashtirish, bahslar va munozaralar o'tkazish, amaliy vaziyatlarni tahlil qilish kabi usullar samarali ekani aniqlandi va isbotini topdi.

2. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish

Hozirgi vaqtida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muloqot malakalarini rivojlantirishning muhim vositasi bo'lib xizmat qilmoqda. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy muloqot faoliyatini takomillashtirishga yordam beradi.[6] Bu yo'nalishda Internet muhitida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, video darslar va onlayn treninglar, ta'lifiy dasturlar va ilovalardan foydalanish, virtual ta'lif muhitlarini yaratish kabi usullarni qo'llash mumkin.

3. Nutq madaniyatini rivojlantirish mashqlari

Bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarining kasbiy muloqot malakalarini shakllantirish uchun nutq madaniyatini oshirish katta ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining nutq madaniyati uning kasbiy mahoratining ajralmas qismi hisoblanadi.[7] Nutq madaniyatini rivojlantirish maqsadida nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi amaliyotlar, lug'at boyligini kengaytirish mashqlari, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini mustahkamlash, notiqlik san'atini o'rganish kabi mashqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

4. O'z-o'zini tahlil qilish yondashuvi

O'z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilar uchun muhim ko'nikma hisoblanadi.[8] Bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarining kasbiy muloqot malakalarini rivojlantirishda o'z-o'zini tahlil qilish yondashuvini qo'llash o'z nutqini baholash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik kundalik yuritish odatini o'rnatish, o'z-o'zini nazorat qilish



va tuzatish malakalarini rivojlantirish, kasbiy muloqotni takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqish kabi imkoniyatlarni beradi:

Bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarining kasbiy muloqot malakalarini baholash ko'rsatkichlari

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy muloqot malakalarini rivojlantirish jarayonida ularni baholash mezonlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash ko'rsatkichlari aniq va natijaga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.[9] Bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarining kasbiy muloqot ko'nikmalarini baholash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

1. Til bilish darajasi mezoni - o'zbek tilining me'yorlarini bilish va amalda qo'llash ko'rsatkichi, nutqning to'g'riliqi, so'z boyligi.

2. Muloqot samaradorligi mezoni - vaziyatga mos til vositalarini tanlash qobiliyati, nutqning maqsadga muvofiqligini ta'minlash, tinglovchilarga ta'sir ko'rsatish malakalari.

3. Hamkorlik mezoni - muloqot jarayonida hamkorlikni tashkil etish, muloqot strategiyalarini samarali qo'llash, ziddiyatlarni konstruktiv hal qilish ko'nikmalari.

4. Ijtimoiy-madaniy mezoni - nutq vaziyatiga mos uslubni tanlash, adabiy nutq me'yorlarini bilish va qo'llash, nutqning madaniy jihatlarini hisobga olish.

5. O'z-o'zini baholash mezoni - o'z muloqot faoliyatini tahlil qilish va baholash, kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish, muloqot uslublarini takomillashtirish qobiliyati.

Ta'lim sifatini ta'minlashda o'qituvchining shaxsi va kasbiy mahorati muhim omil hisoblanadi.[10] Shu ma'noda, bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarining kasbiy muloqot malakalarini baholash va rivojlantirish doimiy jarayon bo'lishi lozim.

XULOSA

Bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarining kasbiy muloqot malakalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish natijasida kasbiy muloqot ko'nikmalari o'qituvchining professional kompetentsiyasining muhim qismi bo'lib, uning pedagogik faoliyati samaradorligini belgilovchi asosiy omil ekanligi, bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarining kasbiy muloqot malakalarini rivojlantirishda

kompetentsiyaviy, madaniy-axborotli, faoliyatga asoslangan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqligi,[11] kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish uchun faol ta'lif usullari, zamonaviy texnologiyalar, nutq madaniyatini rivojlantirish mashqlari va o'z-o'zini tahlil qilish yondashuvidan foydalanish samarali natija berishi, bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarining kasbiy muloqot malakalarini baholashda kompleks yondashuvga asoslanish, til bilish, muloqot samaradorligi, hamkorlik, ijtimoiy-madaniy va o'z-o'zini baholash mezonlaridan foydalanish zarurligi, kasbiy muloqot malakalarini rivojlantirish uzlusiz jarayon bo'lib, nafaqat oliv ta'lif muassasalarida, balki o'qituvchilarning faoliyat davomida ham davom etishi kerakligi[12] haqida xulosalarga kelindi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi takliflarni berish mumkin:

1. Pedagogik oliv ta'lif muassasalarining o'quv rejalariga "O'qituvchining kasbiy muloqot madaniyati", "Pedagogik ritorika", "Muloqot psixologiyasi" kabi maxsus fanlarni kiritish.
2. Bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarining kasbiy muloqot malakalarini rivojlantirish maqsadida maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish.
3. Pedagogik amaliyot dasturlariga kasbiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha alohida topshiriqlarni kiritish.
4. Bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarining kasbiy muloqot malakalarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv qo'llanmalari va elektron ta'lif resurslarini yaratish.
5. O'zbek tili o'qituvchilarining kasbiy muloqot ko'nikmalarini doimiy rivojlantirish tizimini tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Петровский А.В. Психология межличностных отношений в образовательной среде. М.: Академия, 2018. 315 с.
2. Леонтьев А.А. Педагогическое общение. М.: Знание, 2019. 48 с.
3. Кан-Калик В.А. Учителю о педагогическом общении. М.: Просвещение, 2020. 190 с.
4. Зимняя И.А. Педагогическая психология. М.: Логос, 2021. 384 с.
5. Azizzoxjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O'qituvchi, 2020. 298 b.



6. Ishmuhamedov R.J. Zamonaviy ta'lif texnologiyalari. Toshkent: TDPU nashri, 2021. 156 b.
7. Yo'ldoshev J. Pedagogik psixologiya. Toshkent: O'qituvchi, 2019. 278 b.
8. Hasanov A. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. 245 b.
9. Turg'unov S.T. Pedagogik jarayonlarni boshqarish asoslari. Toshkent: Fan nashri, 2017. 196 b.
10. Djurayev R.X. Ta'limda raqamli va innovatsion texnologiyalarning o'rni. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018. 342 b.
11. Azimova M. O'qituvchining nutq madaniyati. Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. 134 b.
12. Abdullayev A. Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: Ma'rifat, 2019. 187 b.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. Toshkent, 2020.